XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr VI-76-122-8-118-K/24 Uzun tumani

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining 2023 - yil 29 - dekabragi “Surxondaryo viloyati Uzun tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-135-8-118-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Uzun tumani hokimining farmoyishi va Uzun tumani hokimi, tuman Kengashi raisining 02-03/71-sonli ko‘rsatma xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining 2023 - yil 29 - dekabrdagi “Surxondaryo viloyati Uzun tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-135-8-118-K/23-sonli qarorining 3-ilovasi 1-bandida ko‘rsatilgan Umumta’lim muassasalari va maktabgacha ta’lim va maktab sohasidagi boshqa tashkilotlarning joriy xarajatlari uchun ajratilgan 11 429 572 000 (o‘n bir milliard to‘rt yuzi yigirma to‘qqiz million besh yuzi yetmish ikki ming) so‘m mablag‘dan, 100 000 000 (yuz million so‘m) mablag‘i ushbu ilovaning 10-bandiga Obodonlashtirish boshqarmasining joriy xarajatlariga o‘tkazilsin.

2.Qarorning qolgan qismi o‘zgarishsiz qoldirilsin.

Shuningdek, Uzun tumani hokimining sessiya oralig‘idagi qabul qilgan 104-8-118-F/24-sonli farmoyishi tasdiqlansin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi TOSHBOYEV BURI ISHMAMATOVICH